XATOLARNI TAHLIL QILISH USULLARINI METODIK AHAMIYATI

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi
Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis tilini o'qitish jarayonida xatolarni tahlil qilishning nazariy asoslari, uning shakllanish bosqichlari hamda metodik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xatolarni to'g'rilash jarayonida metakognitiv kompetensiyani rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Input-output va qayd qilish (noticing) gipotezalari asosida xatolarni bartaraf etishning samarali usullari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, o'qituvchi va til o'rganuvchi o'rtasidagi hamkorlikning muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xatolarni tahlil qilish, nemis tili metodikasi, metakognitiv kompetensiya, input-output gipotezasi, qayd qilish gipotezasi, til o'rganish jarayoni, xatolarni to'g'rilash, interlanguage, pedagogik yondashuv, o'qituvchi roli

Annotation: This article examines the theoretical foundations of error analysis, its development stages, and its methodological significance in teaching German. It also highlights the role of developing metacognitive competence in the process of error correction. Effective strategies for dealing with errors are analyzed based on input-output and noticing hypotheses. The study emphasizes the importance of interaction between teacher and learner in achieving successful language acquisition.

Keywords: error analysis, German language teaching, metacognitive competence, input-output hypothesis, noticing

Jahonda xatolarni bartaraf etishda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning xatolarni bartaraf etishdagi ahamiyati va uning metodologik asoslarni takomillashtirish; metakognitiv kompetentlikning rivojlantirishning innovatsion usullarni ishlab chiqish va qo'llash; xatolarni bartaraf etishda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning eng optimal usullarini ishlab chiqish; bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni bartaraf etishda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish uchun xotira texnikalaridan, raqamli platformalar va interaktiv vositalardan foydalanish; metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish uchun o'quv materiallari va pedagogik strategiyalarni oldindan rejalashtirish; til o'rganuvchilarning ona tilisini hisobga olgan holda, xatoga yo'l qo'yishga olib keluvchi omillarni tahlil qilish; metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish konsepsiyasini takomillashtirish.

Bo‘lajak nemis tili o‘qituvchilarida samarali pedagogik faoliyatni shakllantirish uchun nafaqat til bilimlari, balki o‘qitish jarayonini ongli tahlil qilish ko‘nikmalari ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, xatolarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish jarayonida metakognitiv kompetensiyaning o‘rni beqiyosdir. Chunki metakognitiv yondashuv o‘z faoliyatini kuzatish, baholash va takomillashtirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, xatolarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish o‘qituvchi tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

H. Raabening fikriga ko‘ra, xatolarni tahlil qilishning asosiy vazifasi ularni har tomonlama, tizimli va asosli tarzda tavsiflash hamda izohlashdan iborat. Zamonaviy metodikada xato salbiy hodisa sifatida emas, balki o‘rganish jarayonining tabiiy elementi sifatida qaraladi. Shu sababli xatolar dars jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkin.

Xatolarni tahlil qilish nisbatan yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lib, uning shakllanishi XX asrning 60-yillariga to‘g‘ri keladi [3]. Dastlab xatolarga nisbatan salbiy munosabat hukmron bo‘lib, ular o‘qitishdagi kamchilik sifatida baholangan. Bu qarashlar asosan bexavioristik nazariya bilan bog‘liq bo‘lib, unda xatolar ona tilining salbiy ta’siri (transfer) natijasi deb qaralgan. Shu asosda grammatik-tarjima metodi keng qo‘llanilgan va xatolarni kamaytirish asosiy maqsad qilib olingan.

1970-yillardan boshlab xatolarga munosabat o‘zgara boshladi. Ular chet til o‘rganish jarayonining muhim bosqichi sifatida talqin qilindi. Xato o‘rganuvchining til tizimini faol o‘zlashtirayotganini ko‘rsatuvchi indikator sifatida baholandi. Bu davrda xatolarni tasniflash, ularning chastotasini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, tillararo xatolarni o‘rganish va ularni kognitiv nuqtai nazardan tushuntirishga katta e’tibor qaratildi.

Keyinchalik xatolarni tahlil qilish oraliq til (interlanguage) nazariyasi bilan bog‘landi. Bu yondashuvga ko‘ra, til o‘rganuvchi o‘ziga xos oraliq til tizimini yaratadi va xatolar aynan shu tizimning shakllanish jarayonini aks ettiradi. Natijada xato ijodiy va rivojlanuvchi jarayonning mahsuli sifatida qarala boshlandi.

Xato umumiy ma’noda til me’yorlaridan chetga chiqish sifatida ta’riflanadi. Biroq xatolarni keltirib chiqaruvchi omillar turlicha bo‘lib, ular orasida noto‘g‘ri metodika, ortiqcha soddalashtirish, ma’lumotning yetarli yoki ortiqcha berilishi kabi sabablar ham mavjud [1;4.].

Xatolarni o‘rganishda tavsifiy tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Bunday tadqiqotlar orqali:xatolarni to‘g‘rilash jarayonining tuzilishi aniqlanadi:

- turli yondashuvlar tasniflanadi;
- o‘qituvchi va o‘rganuvchi faoliyati tahlil qilinadi;

- samarali metodlar aniqlanadi;
- o‘rganuvchilarning xatolarga bo‘lgan munosabati o‘rganiladi.

Amaliyotda bunday tadqiqotlar ko‘pincha darslarni yozib olish, transkripsiya qilish, intervyu va so‘rovnomalar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Bu esa o‘qituvchi va o‘rganuvchi o‘rtasidagi interaksiyani chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Xatolarni to‘g‘rilash usullari turlicha bo‘lib, ular bevosita va bilvosita, o‘qituvchi yoki o‘rganuvchi tomonidan amalga oshirilishiga qarab farqlanadi. Tadqiqotchilar ushbu usullarni yagona tizimga solish qiyinligini ta’kidlaydilar, chunki ular ko‘p omillarga bog‘liq.

Muhimi shundaki, o‘qituvchi xatoga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, o‘rganuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ba’zi o‘rganuvchilar ochiq tuzatishni qabul qilsa, boshqalari bundan noqulaylik his qiladi. Shu sababli dars boshida xatolarning tabiiyligi haqida tushuntirish berish foydali hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xatolarni to‘g‘rilash boshqa o‘rganuvchilarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq tuzatishning qanday amalga oshirilishi muhim: ko‘pchilik o‘rganuvchilar nutq paytida to‘xtatilmaslikni afzal ko‘radi [3; 5.].

Xatolarni tahlil qilish asosida bir qator nazariy gipotezalar ishlab chiqilgan. Ulardan biri input-output gipotezasidir. Input – bu o‘rganuvchining yangi til materialini qabul qilishi, output esa uni amalda qo‘llashidir. Samarali o‘rganish uchun input tushunarli va mos darajada bo‘lishi kerak. Output esa o‘rganuvchini til vositalariga e’tibor qaratishga undaydi.

Shuningdek, intake tushunchasi ham muhim bo‘lib, u qabul qilingan ma’lumotning amalda o‘zlashtirilgan qismini anglatadi. Demak, har bir input intakega aylanishi shart emas.

Qayd qilish (noticing) gipotezasiga ko‘ra, o‘rganish jarayoni ongli e’tiborsiz sodir bo‘lmaydi. O‘rganuvchi aynan e’tibor qaratgan til birliklarini o‘zlashtiradi. Shu sababli xatolarni to‘g‘rilash jarayonida o‘rganuvchining diqqatini muammoli nuqtaga jalb qilish muhimdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘rganuvchining o‘z xatosini o‘zi tuzatishi ko‘proq samarali hisoblanadi. Chunki bu jarayonda u faol fikrlaydi va mavjud bilimlariga tayanadi. Biroq ayrim holatlarda o‘qituvchi tomonidan bevosita tuzatish ham zarur bo‘lishi mumkin. Eng yaxshi natija esa ushbu ikki yondashuvning uyg‘unligida kuzatiladi.

Xatolarni samarali tuzatish uchun quyidagi shartlar muhim:

- o‘qituvchi tanlagan usuliga ishonch hosil qilishi;

- o‘rganuvchi to‘g‘ri variantni qayta qo‘llashi (uptake);
- keyingi faoliyatda to‘g‘ri qo‘llash kuzatilishi.

Biroq o‘rganuvchining tuzatishni qanday qabul qilganini aniqlash har doim ham oson emas, chunki bu psixologik jarayonlar bilan bog‘liq [1].

Ba’zi tadqiqotlarda bevosita tuzatish eng kam samarali usul sifatida baholanadi, chunki o‘rganuvchi o‘z xatosini anglab yetmasligi mumkin. Aksincha, yo‘naltiruvchi savollar yoki ishoralar orqali o‘zini tuzatish samaraliroq hisoblanadi.

Shuningdek, grammatik va leksik xatolarga munosabat ham farq qiladi. Odatda, o‘qituvchilar grammatik xatolarni o‘zlari tuzatishga moyil bo‘ladilar, lekin o‘rganuvchilarga mustaqil tuzatish imkonini berish ularning rivoji uchun foydalidir.

Xatolarni tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, natijalar ko‘plab omillarga bog‘liq: yosh, guruh hajmi, o‘rganish maqsadi va boshqalar. Shu sababli bu yo‘nalishda kengroq va uzoq muddatli tadqiqotlar olib borish zarur.

Xulosa qilib aytganda, xatolarni tahlil qilish va to‘g‘rilash zamonaviy chet til o‘qitish metodikasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat tilni o‘zlashtirishni, balki o‘rganuvchilarning mustaqil fikrlash va o‘z faoliyatini boshqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois, ayniqsa bo‘lajak nemis tili o‘qituvchilarini tayyorlashda ushbu masalaga alohida e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Edmondson W. Warum haben Lehrerkorrekturen manchmal negative Auswirkungen? // Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehleranalyse und Fehlerkorrektur. 1993. –S 58.
2. Gumbaridze J. Error Correction in EFL Speaking Classrooms // Procedia - Social and Behavioral Sciences. – 2013. V.70, –1660–1663 p.; Havranek G. When is corrective feedback most likely to succeed? // International Journal of Educational Research. – 2002. V. 37(3-4), – 255–270 p
3. Henrici G. Fehleranalyse und Fehlerkorrektur // Fremdsprachen Lehren und Lernen. –1993. V. 22. –S.217.
4. Lochtman K. Fremdsprachen in Lehre und Forschung. Korrekturhandlungen im Fremdsprachenunterricht. – Bochum: AKS-Verlag, 2002. –S. 19.
5. Tönshoff W. Mündliche Fehlerkorrektur im Fremdsprachenunterricht // Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. - München. – 2005. Band 16. –S 14.